

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G.Numanova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education .....	877
<b>J.G.Numanova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods .....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini .....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels .....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari .....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari .....	898
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi .....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari .....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах .....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions .....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati .....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar .....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi .....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv .....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi .....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari .....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English .....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language .....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi .....	946
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana .....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari .....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi .....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi .....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi .....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish .....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi .....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion .....	979



## MAKON VA ZAMON TUSHUNCHALAR O'RТАSIDАГИ BOG'LIKLAR MASALASI

СВЯЗЬ МЕЖДУ КОНЦЕПЦИЯМИ ПРОСТРАНСТВА И ВРЕМЕНИ

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE CONCEPTS OF SPACE AND TIME

Nizomova Nargiza Aliyevna 

Farg'ona davlat universiteti "Ingliz tili amaliy kursi" kafedra o'qituvchisi

## Annotations

*Ushbu maqola makon va zamon tushunchalar o'rtaсидаги bog'liliklar masalasini o'rganish orgаниш ularни таҳлил qilish va o'rganish nazarda tutilgan. Unda ushbu masala yuzasidan bir qator tadqiqotchilar fikrlari o'rganilgan. Makon va zamon haqidagi falseafiy qarashlami umumlashtirib va bu kategoriyalar mazmunini dunyo haqidagi tabiiy -ilmiy bilimlar bilan boyitib, makon va vaqtning asosiy xossalarni qayd etamiz. Makon va zamon o'rtaсидаги o'zaro bog'liliklari taraflarini o'rganib va shu asosida o'rtaсидаги farqli hamda o'xshashlik jihatlarini qaytarib o'tildi.*

## Annotations

*Путём изучения и анализа отношений между понятиями пространства и времени в этой статье было обнаружено, что они были подвергнуты анализу и изучению. В ней представлены мнения ряда исследователей по этому вопросу. Этих категорий естественно научными знаниями о мире мы осознаем основным свойство пространство и времени. Изучая аспекты взаимодействия пространство и времени обратил внимание на различия и сходства между ними.*

## Abstract

*Through studying and analyzing the relationship between the concepts of space and time in this article, it was found that they have been subjected to analysis and examination. It presents the opinions of several researchers on this matter. Philosophical about space and time summarizing the outlook and the content of these categorizations, natural scientific knowledge of the world enriching with the basic properties of the space and time. Between space and time studying the sides of the relationship. Though, in this article explained studying the aspects of the difference and similarities between these concepts.*

**Kalit so'zlar:** konsept, makon, fazo, vaqt, bog'lilik, ilm-fan, fan, tafakkur, lingvistik kompetensiya, terminologiya

**Ключевые слова:** концепт, пространство, фаза, время, отношение, наука, искусство, мысль, лингвистическая компетенция, терминология

**Key words:** concept, space, time, relationships, linguistics, science, subject, spatial, linguistic competence, temporal, process, frame, cognition, comprehension, category, collaborate, term.

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika kabi tarmoqlari taraqqiyoti insonning turli voqealardan kechimidagi ishtirok etshi hamda kuzatish jarayonining lisoniy asoslarini kengroq yoritishda insontafakkur faoliyat bilan bevosita bog'liq tarzda o'rganishga keng e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimida zamonaviy hamda istiqbolli o'qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta'limiy axborot infrastrukturasi bazasini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning amaliy asoslarini belgilashda tilga va tilshunoslikka aloqador sohalar ham muhim o'rinda turadi. Shu nuqtai nazardan tilshunoslikning konseptosfera, kognitiv-metaforik, lingvofalsafiy va lingvomadaniy tahlili bo'yicha tadqiqotlar olib borish, ijtimoiy lingvistik bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ingliz va o'zbek tillaridagi so'zlashuv nutqining sintaktik tuzilishi, sintaktik birliklarning qo'llanilishi va sintaktik xususiyatlari ham shu tillar miqyosida ham tipologiya nuqtai nazardan yoritilmaganligi bilan birligida tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

## TILSHUNOSLIK

Tilshunoslik fanining lingvokulturologiya sohasida uzoq vaqt mobaynida fazoni vaqtidan ajratib tushunish hukmronlik qilib kelmoqda. Shu boisdan ham vaqtga nisbatan dinamik hamda statistik ilmiy qarashlar ham mavjuddir.

Dinamik qarash bo'yicha fikr bildirsak, vaqtning faqat hozirgi zamonigina real mavjud deb aytishimiz mumkin, o'tmish esa o'tib ketgan, kelajak bo'lsa hali mavhumligicha qolmoqda. Statistik qarash vakillarining ta'kidlashicha, vaqtning barcha lahzalari esa bir vaqtida mavjud bo'lib, vaqtning har bir lahzalarini sub'yekt o'z boshidan kechiradi hamda unga go'yoki bu vaqt lahzalari oqib o'tayotgandek tuyiladi.

Makon va zamonning yana boshqa bir xususiyatlari ham borki, ularda barcha hisob sistemalarida, materianing barcha struktura darajalarida, mikro dunyoda ham jamiyatda ham bir xilda saqlanadi. Ular makon va zamonning tub sifatiy xususiyatlarini ifodalovchi fundamental jihatlari hisoblanadi. Tilsunoslik sohasida shu kabi xususiyatlarni tipologik xususiyatlar deb yuritiladi. Topologik xususiyatlar moddiy aloqadorliklarning ichki, tub sifatiy jihatlarini ifodalaydi. Topologik xususiyatlarning o'zgarishi bilan moddiy ob'ektlarning tuzilishida tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslik fanining lingvokulturologiya sohasida uzoq vaqt mobaynida fazoni vaqtidan ajratib tushunish hukmronlik qilib kelmoqda. Shu boisdan ham vaqtga nisbatan dinamik hamda statistik ilmiy qarashlar ham mavjuddir.

Dinamik qarash bo'yicha fikr bildirsak, vaqtning faqat hozirgi zamonigina real mavjud deb aytishimiz mumkin, o'tmish esa o'tib ketgan, kelajak bo'lsa hali mavhumligicha qolmoqda. Statistik qarash vakillarining ta'kidlashicha, vaqtning barcha lahzalari esa bir vaqtida mavjud bo'lib, vaqtning har bir lahzalarini sub'yekt o'z boshidan kechiradi hamda unga go'yoki bu vaqt lahzalari oqib o'tayotgandek tuyiladi.

XX-asrning boshlariga kelib A.Eynshteyn tomonidan nisbiylik nazariyasining yaratilishi makon va zamonning o'zaro chambarchas bog'likligini, makon va zamon tizimining harakat tezligi bilan, makon-zamon strukturasiining modda zichligi bilan bog'likligi haqidagi ilmiy-nazariy fikrmulohazalar o'zining isbotini topdik.

Makon va zamonning yana boshqa bir xususiyatlari ham borki, ularda barcha hisob sistemalarida, materianing barcha struktura darajalarida, mikro dunyoda ham jamiyatda ham bir xilda saqlanadi. Ular makon va zamonning tub sifatiy xususiyatlarini ifodalovchi fundamental jihatlari hisoblanadi. Tilshunoslik sohasida shu kabi xususiyatlarni tipologik xususiyatlar deb yuritiladi. Topologik xususiyatlar moddiy aloqadorliklarning ichki, tub sifatiy jihatlarini ifodalaydi. Topologik xususiyatlarning o'zgarishi bilan moddiy ob'ektlarning tuzilishida tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Quyidagi xususiyatlar makonning topologik xususiyatlari hisoblanadi: uzluksizlik va uzluklilik, o'lchamlilik, bog'langanlik, kompaktlik, tartiblanganlik, chegarasizlik.

Vaqtning topologik xususiyatlariga esa uzluksizlik, orqaga qaytmaslik, bir o'lchovlik, chiziqli tartiblanganlik va bog'langanlik kiradi.

Makon hamda zamon materiya strukturasiagini o'zaro aloqadorliklar majmuasini aks ettiradi hamda ushbu aloqadorliklarning turli xil shakllari, turli xil shakldagi harakat va unga bog'liq bo'lgan makon-zamon shakllarining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.

Substansional yo'nalishda makon va zamon materiya va onga bog'liq bo'Imagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substansional konsepsiya asoschilar Demokrit (makon muammosi bo'yicha) va Platon (zamonga nisbatan yondashuvlarda) makon va zamonni materiyaga ham, bir-biriga ham bog'liq bo'Imagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo'shilq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo'shilqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo'shilq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo'ladi, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan.

Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta'llimotiga ko'ra, makon obyektiv va bir xildir hamda cheksizlik tushunchasiga ham ega hisoblanadi. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin - u o'tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt -

voqealar yuz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtini mustaqil substansiyalarga ajratuvchi bu g'oyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi.

XVIII-XIX asrlarda substansional konsepsiya - mutlaq makon va vaqt konsepsiysi falsafada tabiatshunoslikda yetakchilik qildi. Bu o'z mohiyatiga ko'ra metafizik konsepsiya edi, chunki u harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini e'tiborga olmas edi.

Mazkur konsepsiaga ko'ra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bog'liq bo'limgan vaqt mavjud bo'lishi mumkin edi. Shunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdag'i tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa o'tasida bevosita aloqa kuzatilmaydi. Obyekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon o'zgarmaydi va yo'qolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u obyektlarga bog'liq emas. Shuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyonni o'rganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo dialektik tafakkur sohibi bo'lgan F.Gegel bunday yondashuvlarni qat'iy inkor etgan. U makon mustaqil bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: "...hamma narsa vaqtida yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o'zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir".

Bu e'tirozlarida F.Gegel haq edi. Umuman, Gegelning obyektiv idealizmida makon va zamonga e'tibor qaratmagan, chunki u vaqtidan tashqari, boqiy, "sof mantiqiy" xususiyatga ega bo'lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

Ikkinci – relyatsion (lot. relativus - nisbiy) yo'naliш makon va vaqtini mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo obyektlari va jarayonlari o'tasidagi alohida munosabatlardan sifatida tushunish bilan bog'lanadi. «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtida ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi "keyin" mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o'zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz.

Vaqt shu "hozir" yoki "butun"ning ketma-ketligi, ularning almashushi, sanogi, hisobi, "oldingi va keyingiga bog'langan harakatlar soni"dan iboratdir. Aristotelda makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida makon va vaqtidan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan.

Mazkur nuqtai nazardan ko'rsatilgan munosabatlardan tashqarida makon va vaqt mavjud bo'lmaydi. Bu yo'naliшning atoqli namoyandasini G.Leybnits hisoblanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'zbek va ingliz so'zlashuv nutqining sintaktik tuzilishi, So'zlashuv nutqining uslubiyatlari, O'zbek tilidagi sozlashuv nutqining bosqichlari Ingliz tili so'zlashuv nutqining sintaktik tahlili, hozirgi o'zbek va ingliz tilida so'zlashuvdagi nutq jarayonining muhim tushunchalari sifatida -metodologik qonun va qoidalarni A.Abduaзizov O.Bazarov N.N.Boldyrev, J.Sh.Djumabayeva, Sayfullaeva R.R., B.R.Mengliyev, G.H.Bogieva, M.M.Kurbanova, Z.K.Yunusova, M.K.Abuzalova, Sh.Safarov, H.Jamolxonov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, Sh.Rahmatullayev Sh.Shoabdurahmonov va boshqa shu kabi sohada faoliyat olib borganlar tomonidan asoslab berilgan.

Shuningdek tilshunoslik sohasidagi muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha: Н.Ф.Алефиренко, Е.С.Кубрякова, М.В.Никитин, З.Д.Попова, М.А.Холодная, М.А.Холодная, И.М.Кобозева, И.М.Кобозева kabi xorijji

yetakchi tilshunos olimlarning qator ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Mamlakatimizda turli tizimli tillarda konsept tushunchasi M.R. Galiyeva, A.A.Abduaзizov, D.U.Ashurova, M.D.Djusupov, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, O'.Q.Yusupov, G'.Xoshimov J.Yakubov, G.Ergasheva, Z.A.Kasimova kabi tilshunos olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Bu tadqiqotlar o'zbek va ingliz tilidagi so'zlashuv nutqida faol qo'llaniladigan sintaktik, leksik, lisoniy tahlillar tilshunoslikning umumiyy muammolari va ularni tizimli o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbek va ingliz tilida so'zlarni turkumlarga ajratishda O'zbekiston milliy ensiklopediyasi hamda The problem of classification of the vocabulary kabilar ko'rsatkichlari mavjud.

## XULOSA

1. Makon va haqidagi falsafiy qarashlarni umumlashtirib va bu kategoriylar mazmunini dunyo haqidagi hozirgi tabiiy-ilmiy bilimlar bilan boyitib, yuqorida aytiganlar nuqtai nazaridan makon va vaqtning asosiy xossalarni qayd etib o'tamiz - makon ko'lamlilik, bir jinslilik va ko'p o'lchovlilik bilan tavsiflanadigan mavjudlik tartibi, vaqt esa davomlilik, orqaga qaytmaslik va izotroplik, ya'ni mumkin bo'lgan barcha yo'nalishlaming teng huquqliligi xos bo'lgan voqealarning harakat tartibi va ketma-ketligidir.

2. Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir. Shunday qilib, konsept ko'p tarmoqli va ko'po'lchovli hodisadir. Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning fikrlarini o'rganish natijasida yakdil xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ldi va tilshunoslikning yanada chuqur o'rganilishi talab etiladigan mavzusi ekanligi ko'rindi.

Ushbu bobda konsept tushunchasining nazariy asoslarini hamda uning tilshunoslikdagi o'mi hamda ahamiyati borasida ilmiy tadqiqot olib bordim. Unga ko'ra tilshunoslikdagi har bir tushunchani konsept sifatida o'rganish uni mazmunini aniq ochib berishini ta'minlaydi.

3. Tadqiqot ishimning mazkur bobini birinchi paragrifida "Makon" konseptini nazariy asoslanishi va o'rganilish darajasi bo'yicha ilmiy izlanish olib borildi. Xusasan, "Makon" konseptining nazariy va amaliy ahamiyatini sohada ilmiy izlanish olib borgan tilshunos olimlarning fikr-mulohazalar bilan birgalikda tahlil orgali ishni ushbu qismidagi maqsadni ochib berishga harakat qildim.

4. "Makon" va "zamon" tushunchalari o'tasidagi o'zaro bog'liqliklar masalasi deb nomlangan ikkinchi paragrifda ikki tushunchaning o'zaro bog'liqlik taraflarini o'rgandim va shu asosida o'tasidagi farqli hamda o'xshashlik jihatlarini keltirib o'tilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

3. Klyuev E.V. Speech communication. M.: PRIOR, 1998. Knapp M.L. Non-verbal communication. M.: PRIOR. 2000.
4. Алефиренко Н. Ф. Когнитивно-семиотические аспекты лингвокультурологии // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2006. – № 1. – С. 36–44.
5. Кубрякова Е. С. Язык и знание : на пути получения знаний о языке : части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Е. С. Кубрякова. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
6. Никитин М. В. Предел семиотики / М. В. Никитин // Вопросы языкоznания. – 1997. – № 1. – С. 3–14.
7. Попова З. Д. Семиотические аспекты когнитивной лингвистики / З. Д. Попова // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2006. – № 2. – С. 45–52.
8. Холодная М. А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования / М. А. Холодная. – 2-е изд., перераб. и доп. – СПб. : Питер, 2002. – 272 с.
9. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика / И. М. Кобозева. – М. : Эдиториал УРСС, 2000. – 352 с.
10. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 38;
11. Палутина О. Г. Концепт «вода» в русской и английской концептосферах // Теория и практика германских и романских языков. -Ульяновск, 2002. -С. 90.